

SADRIDDIN AYNIIY “ESKI MAKTAB” ASARIDA BOLALIK VA TA’LIM TIZIMI MUAMMOLARI

Orzuikulova Mavsuma Mamatkulovna

*Samarqand davlat pedagogika instituti
asistenti*

mavsumaorziqulova@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.11.2025

Revised: 04.11.2025

Accepted: 05.11.2025

KALIT SO’ZLAR:

*Inqilob, Eski maktab,
eski tizim, Oybek
“Bolalik qissalari”,
Charles Dickens
“Oliver Twist”,
mashaqqatli hayot.*

Ushbu maqolada fors tojik adibi Sadriddin Ayniyning hayot va ijodiyoti, Sadriddin Ayniyning mashhur asarlaridan biri “Eski maktab” haqida ma’lumot, asarda eski maktab tasviri, mashaqqatli hayot va ta’lim tizimidagi sanoqsiz muammolar haqida ma’lumotlar keltiriladi. “Eski maktab” va boshqa asarlarda bolalik talqinidagi xilmaxillik, tasvirlash jarayonida qo’llanilgan badiiy vositalar keltirilgan.

Kirish

Sadriddin Said Murodzoda, Sadriddin Ayniy taxallusida ijod qilgan davlat va jamiyat arbobi, Sovet davridagi tojik adabiyoti asoschisi hisoblanadi. Adib 1878-yil, 15-aprelda Buxoro amirligining, Suktare qishlog’ida tug’ilgan. Ayniyning otasi, said Murodxo’ja oddiy dehqon bo’lsada, farzandlarining bilimli va barkamol inson qilib tarbiyalashga juda katta harakat qilgan va o’g’li Ayniy 6 yoshida, qishlog’idagi madrasalarning birida tahsil olishi uchun sharoit yaratib bergan. Sadriddin Ayniyning aynan “Eski maktab” asari avtobiografik asar bo’lib, unda adib o’zining bolalikdagi birinchi maktabini tasvirlagan. Lekin shavqatsiz hayot va davosiz dard yozuvchi hayotini ham chetlab o’tmadi. U qirq kun ichida ham otasi ham onasidan davosiz kasallik sabab ajralib, yetimlik musibatiga ro’baro’

bo'ldi. Shundan keyin adib, Buxoroga keladi. Lekin Ayniga o'xshagan kambag'al insonlar uchun Buxorodagi nomdor madarasalarda tahsil olish juda qiyin edi. Sgunga qaramasda Ayniy o'zining shijoati, g'ayrati va bilimi bilan Buxoro amirligidagi "Mir Arab", "Olimxon", "Badalbek" va "Ko'kaldosh" madrasalarida tahsil olishga Musharraf bo'ladi. U dastlab "Sifli" va Muhtojiy" taxalluslarida ijob qilib, keyinchalik, 1896-yildab boshlab, "Ayniy" taxallusida ijob qilgan. Buxoroda ko'plab maktab va madrasalar qurib, darslik va qo'llanmalar chiqargan. Aynin jadidchilik harakatlarini amalga oshirib, "Yosh buxoroliklar" harakatiga a'zo bo'ladi va bu Buxoro amiri Amir Olimxonning g'azabiga sabab bo'lib, o'qituvchi qamoqqa olinib 75 darra urishga hukm qilinadi. Sadridin Ayniy 1918-yilda birinchi tojik-o'zbek inqilobiy matbuatida ishlagan. 1926-yildan Tojikiston Davlat nashriyotida maslahatchi, adabiy muharrir bo'lib ishlagan. 1934-yilda Sovet yozuvchilarining Butunittifoq qurultoyida qatnashib, SSSR Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi a'zolariga saylangan. Fan sohasida unga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan va O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi unvonini olgan. Tojikiston SSR FA akademigi bo'lgan, Tojikiston SSR FA birinchi prezidenti bo'lib faoliyat olib boragan. Adib 1954-yil, 15-iyulda Dushanbe shahrida vafot etgan. Hozirda Ayniy maqbarasi Dushanbeda, ziyorat joyi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Sadridin Ayniy ikki tilda ijob qilgani sababli, uning "Eski maktab" asari dastlab, fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, "Maktabi ko'hna" deb nomlangan. Asar 1936-yilda yozilgan bo'lib, 1950-yilda birinchi marta nashr etilgan. Qissada Inqilobgacha bo'lgan maktablar haqida naql qilinadi. Keyinchalik 2010-yilda asar rassomi Abdusalom Abdullayev tomonidan yangi rasmlar bilan bezatilib, kitob boshqattan Dushanbeda nashr qilingan. Mazkur asar, o'zbek, rus va hatto fransuz tillariga tarjima qilinib, butun jahonda mutolaa qilingan. Sadridin ayniyning mazkur qissasida, nafaqat eski maktablar tuzumi, balki mehnatkashlarning mashaqqatli hayoti va ayanchli bolalik mohirona tasvirlab berilgan.

Asar aynan Sadridin Ayniyning otasi uni, olti yoshligida maktabga saboq olish uchun olib borganligi bilan boshlanadi. Aytilishicha, uning onasi hali bolalik davrida o'ynab kusi deb norozi bo'lganligi sabab u to'rt yoshida emas, balki olti yoshida maktabga borgan, vaholanki barcha tengdoshlari to'rt yoshidan maktabga borgan. Asardagi bir jumla inson e'tiborini juda ham o'ziga tortadi: "Seni to'rt yasharu to'rt oy, to'rt hafta to'rt kunligingda dasturxon qilib, maktabga eltib, saboq boshlab qo'ygan edik"- bundan shu ma'lum bo'ladiki, o'sha davrlarda aynan to'rt yoshli bolani maktabga dasturxon qilib, oborishgan. Sadridin Ayniy shuning uchun ham maktabga juda katta ishtiyoq bilan borgan va

tengdoshlaridan bilim olishga o'zib ketishni maqsad qilgan edi. Lekin maktabdagi tizim va sharoitlar bunga yo'l qo'ymadi. Adib maktab derazalariga qilingan zig'ir yog'i surtilgan qog'ozlarni maktabdagi domloning umrida sovun ko'rmagan yuziga qiyoslaganidan o'qituvchining qay darajada savodsizligini payqasa bo'ladi. Asarda maktab juda rangsiz va qorong'u qilib tasvirlangan, go'yo zulmatda qolgan bolalardek. Ayniy maktabxonalarini uyidagi katakxonalarga o'xshatib, hech qachon esidan chiqmasligini ta'kidlaydi. Maktabxonalardagi o'quvchilar ham xuddi jo'jalar kabi bir-birini bosib o'tirishar dod bedodlaridan esa kishi qulog'i og'rirdi. Maktabdagi domloning xurmacha qiliqlari asarda juda ifodali tasvirlangan. Sadridin Ayniy eski maktabni bolalarni azoblash uchun qurilgan maktabxona deb tasvirlaydi. Asarda aytilishicha adibning otasi juda bilimli inson bo'lib, domloning yozgan yozuvlaridan xato topgan va gapini o'tqazgan. Sadridin Ayniy uqubatxona deb atagan maktabdan qochmoqchi ham bo'lgani lekin darvozalar zanjirband ekanini aytgan.

Xuddi shunday mashaqqatli kechgan bolalik talqinlarini Charlz Dikkensning "Oliver Twist", Oybekning "Bolalik xotiralarim" va Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarlarida ko'rishimiz mumkin. Bu asarlarning ba'zilarida baxtli bolalik tasvirlangan bo'lsa, ba'zilarida aynan azob uqubatda kechgan bolalik tasvirini ko'rishimiz mumkin. Oliwer Twist asarida ham ota onasida barvaqt yetim qolib, yetimxonada katta bo'lgan Oliwerning ayanchli taqdiri, sermashaqqat hayoti va zulmatda qolgan bolalik haqida hikoya qilinadi. Bolalik tasviri keltirilgan yuqoridagi asarlarning barchasi avtobiografik asarlar hisoblanadi. Adiblar o'zlari bosib o'tgan sarguzashtli hayotlari haqida hikoya qilar ekanlar. Har bir davrda o'ziga xos bo'lgan urf-odatlarini juda chiroyli qilib tasvirlashgan. Xususan Oybekning "Bolalik qissalari" asarida Musoning bobo va buvisining beg'ubor xarakteri iqtidori juda chiroyli tarzda aytilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadridin Ayniy, "Maktabi ko'hna", Dushanbe, 2010
2. Sadridin Ayniy, "Eski Maktab" Toshkent, 1982
3. Charles Dikkens, "Oliwer Twist"
4. Oybek. Bolalik. Qissa va hikoyalar. "Sharq", 2008